Vodiliy (1893-1965)



Vodiliy (1893-1965)

Vodiliy (taxallusi; asl ismi So‘fiyev Abdurahmon) (1893, Farg‘ona, Vodil qishlog‘i — 1965, Toshkent) — o‘zbek shoiri. Erkin fikrlilikda ayblanib quvg‘in va ta’qiblarda yashagan.

Vodiliyning «Devon»i (1963), farzandlariga yozgan o‘gitlari bor. Abdurahmon Jomiyning tasavvufga oid kitobi, Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr», Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonlarining qiyosiy, nasriy bayonlari hamda Muhammad Hodiyning «Alvohi intiboh» asarlarining o‘zbekcha tabdili Vodiliy qalamiga mansub.

She’rlarida ozodlik yo‘lida kurashgan erksevar vatandoshlarining fikri, niyatlari aks ettirilgan.

2023-09-08 20:53:03